



SO'Z BIRIKMALARINING TUZILISHIGA KO'RA TADQIQI (O'TKIR HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)

Jo'rayeva Mehriniso

TerDU, o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8055650>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-June 2023 yil
Ma'qullandi: 17-June 2023 yil
Nashr qilindi: 19-June 2023 yil

KEY WORDS

so'z birikmasi, sodda birikma, murakkab birikma, tobe a'zo, hokim a'zo, so'z birikmasi zanjiri, mustaqil so'z, kengayish, ibora.

ABSTRACT

ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning asarlari tarkibida qo'llanilgan so'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra tadqiqi yoritilgan bo'lib, keltirib o'tilgan va bildirilgan nazariyalar misollar asosida asoslab berilgan.

So'z birikmasi o'z tarkibidagi hokim a'zoning qaysi so'z turkumiga kirishiga qarab quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi: ismli birikmada hokim a'zo ot, sifat, son, olmosh turkumlarida ifodalanadi: *musaffo osmon(ot), itdan katta(sifat), do'konlardan biri(son), darslarning barchasi(olmosh)* kabi. Fe'lli birikmada esa hokim a'zo faqat fe'ldan iborat bo'ladi: *vazifani yakunlamog, mustaqil tayyorlanish, onasidan uyalgan* kabi.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asaridagi so'z birikmalarining tarkibidagi hokim a'zoning qaysi so'z turkumiga kirishiga ko'ra tahlili quyidagicha:

1. Sahna chetidagi zinadan guldasta ko'targan qator-qator odamlar chiqib kelishardi(66-b). Sahna chetidagi – otli ; chetidagi zinadan – otli; zinadan kelishardi – fe'lli; guldasta ko'targan – fe'lli; ko'targan odamlar – otli; qator-qator odamlar – otli;
2. Poshnalari bilan qorong'i sukunatni charsillatib titratgancha yo'lkadan o'tib, bog' chekkasidagi temir panjara oldiga keldi(66-b). Poshnalari bilan charsillatib – fe'lli; qorong'i sukunatni – otli; sukunatni charsillatib – fe'lli; charsillatib titratgancha – fe'lli; yo'lkadan o'tib – fe'lli; titratgancha o'tib – fe'lli; bog' chekkasida – otli; chekkasidagi panjara – otli; oldiga keldi – fe'lli birikmalar. Demak, ko'rinib turganidek ushbu asar tarkibidagi ikkita gap tahlili jarayonida eng ko'p fe'lli birikmalar qo'llanilganligiga guvoh bo'lindi.

Yuqorida so'z birikmalar ikki mustaqil so'zli birikmalar edi. Shuningdek so'z birikmalari uch va undan ortiq mustaqil so'zli bo'lishi mumkin. Masalan: *haybatli baland tog'lar, maftunkor chaman vodiy* kabi. Demak, tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi ikki turga bo'linadi: a)sodda birikma; b)murakkab birikma.

Sodda birikma odatda ikki mustaqil so'zdan tuziladi: yashil o'rmon, ko'm-ko'k makon. Shuningdek, *katta yoshli odam, ikki yoshar bola, zar kokilli qiz, qizil ko'ylakli yigit* kabi birikmalar ham , tobe a'zo+hokim a'zo munosabatidagi sodda birikmalar sanaladi. Ularni qo'shma birikmalar bilan adashtirmaslik lozim. Yuqoridagi misollardagi katta yoshli, ikki

yashar, zar kokilli kabi so'zlar bir-biridan ajratilmagan holda, butunligicha tobe bo'lak vazifasini bajarib keladi. Yana alohida ta'kidlanadigani, so'z birikma a'zolari ibora bilan ifodalanib kelganda ham sodda birikma sanaladi[2,332]. Masalan: 1. *Ariq qazib bo'lmasa, yer chopib bo'lmasa...o'zimizniyam patagimizga qurt tushgan*("Ikki eshik orasi" 189-b). Birikma – o'zimizniyam patagimizga qurt tushgan(olmosh+ibora=sodda birikma). 2. *Aytyapmanku, burnini suqmagan joyi yo'q edi bu bolaning*("Tushda kechgan umrlar" 43-b). Birikma – burnini suqmagan joyi(ibora+ot=sodda birikma). 3. *Kechqurun og'zim qulog'imga yetkudek bo'lib, ko'tarib keldim*("Dunyoning ishlari" 21-b). Birikma – og'zim qulog'imga yetgudek keldim(ibora+fe'l=sodda birikma) kabilar misol bo'ladi.

Murakkab birikma sodda birikma a'zolarining kengayishidan tuziladi. Masalan: 1. U anchagacha behush tikilib yotdida, vassoyjuftlari sarg'ayib ketgan shiftni, burchakdagi shkafni ustida turgan, chaqa solinadigan ganch mushukchani ko'rib sekin uf tortdi("Bahor qaytmaydi" 8-b). Sodda birikma – ganch mushukcha; murakkab birikma – chaqa solinadigan ganch mushukcha. 2. Chekka-chekkadagi azamat yong'oqlar shov-shuv rtib, o'tib ketgan bahorini eslaganday jimgina xayolga tolga o'riklarning qonday qizargan yaproqlari uzilib ketishdan cho'chib titrab turibdi("Bahor qaytmaydi" 9-b). Sodda birikma – azamat yong'oqlar; murakkab birikma – chekka-chekkadagi azamat yong'oqlar.

Yuqoridagi *chaqa solinadigan ganch mushuk*(chaqa solinadigan+ganch+mushuk), *chekka-chekkadagi azamat yong'oqlar*(chekka-chekkadagi+azamat yong'oqlar) so'z birikmalarida tobe a'zoning kengayishi natijasida murakkab birikma hosil bo'lgan. Ba'zan esa har ikkala, ya'ni tobe va hokim a'zo ham birdan kengayib, murakkab birikma hosil qilishi mumkin: *hammadan bilimdon serharakat talabalar*(hammadan + bilimdon + serharakat + talabalar)

(talabalar_____serharakat)_____ (hammadan bilimdon)

Murakkab so'z birikmalarida so'z birikmasi zanjiri tushunchasi ham mavjud. Bu jarayonda so'z birikmasi tarkibidagi a'zolaridan biri oldingi so'zga hokim va keying so'zga nisbatan tobe munosabatda bo'lishi mumkin[4,26]. Ushbu nazariyaga muvofiq *hovlini supurayotgan qiz* birikmasi olindi. Bunda so'z birikmasining o'rta qismida kelgan *supurayotgan* so'zi o'zidan oldingi *hovlini* so'ziga hokim a'zo bo'lsa, *qiz* so'ziga tobe a'zo hisoblanadi. Adabiyotlarda uning sxemasi ham keltirib o'tiladi. Demak, hosil qilingan *hovlini supurayotgan qiz* birikmasining sxemasi quyidagicha:

7.Qiz

6.Sipurayotgan

5.Hovlini

Birikma esa kengayishi mumkin:

4.Qiz

3.Sipurayotgan

2. Hovlini

1.Yozgi

A'zolarining bu tarzda kengayishi murakkab birikmalar aro sodir bo'lib, so'z birikmasi zanjiri deb ataladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, matn tarkibidagi har bir gapni bir-biriga bog'lab turadigan asosiy vositalar so'z birikmalari sanaladi. Ular orqali matn tarkibida anglashilishi kerak bo'lgan voqealar, fikrlar anglashiladi, yorqinroq ifodalanadi. Jumladan, yuqorida O'tkir Hoshimov asarlari misolida ko'rib o'tilgan, tahlilga olingan so'z birikmalarini

keltirish mumkin. Asarlar tarkibidagi har bir sodda va murakkab birikma o'z o'rniga ega. Murakkab birikmalar ifodalanayotgan voqelikni ochiqroq tasvirlashga ko'maklashsa, sodda birikmalar o'sha muhit koloritini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Hoshimov. (qissa va hikoyalar)– T: “Nurli dunyo” nashriyot uyi, 2022. - 160 b.
2. R. Sayfullayeva., B. Mengliyev., L. Raupova., M. Qurbonova.,
3. M. Abuzalov., D. Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi”, 2020.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II jild. Sintaksis. O'zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. – T, 1996.
5. M. Sharipov. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi.
6. – T.: O'zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1978.

